

## FRANSUZ TILINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR

**Xolbekova Sayyoraxon Amanjanovna**

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Farg`ona filiali akademik litseyi “Xorijiy tillar” kafedrasi fransuz tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Barchamizga ma'lumki, bugun fransuz tili faniga bo'lgan ehtiyoj yana ko'payib, akademik litseylarda ushbu fanni o'qitish yo'lga qo'yilgan. Akademik litseyda talabalar fransuz tilining fonetikasi, leksikasi va grammatikasi yuzasidan o'ta zarur bo'lgan ilmiy bilimlar silsilasi bilan qurollantirish maqsadida o'quv qo'llanmalari, metodik kitoblar chop etila boshlandi. Ayni vaqtida fransuz tili mashg'ulotlari talaba shaxsini tarbiyalash va uni rivojlantirish vositasi hamdir. Fransuz tilini o'qitishda nazariyani amaliyotga bog'lash deganda talabalardan tildan egallayotgan ilmiy va nazariy bilimlarini amalda qo'llashini ta'minlash, ularni mustaqil turmush uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikmalar bilan qurollantirishni tushunamiz. Bu borada fransuz tili darslarida turli xil interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.*

**Kalit so'zlar:** *Interfaol va zamonaviy usullar, talabalarni darsga qiziqtirish, so'zlardan darsda foydalanish, chet tilini bilish.*

So'ngetti tendensiyalarga muvofiq, til ko'proq muloqot sifatida o'qitilishi ko'zlangan. Shu sababli og'zaki ko'nikmalarning nafaqat sifati va xususiyatlariga qarab, balki mavjud ta'lim amaliyotida ularni rivojlantirishga qaratilgan uslub va usullarda ham aks ettirish maqsadga muvofiqdir. Nofilologik guruqlarida til o'rganayotgan talabalarning gapirish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muloqot yondashuvidan foydalanish eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Shunday ekan, biz asosiy e'tiborni talabalarning og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratishimiz kerak. Chet tilini bilish insonni zamonaviy, har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalaydi, shuningdek, xalqaro biznes olamiga, butun dunyoga yo'l ochib beradi.

Akademik litseylarda fransuz tili amaliy mashg'ulotlarida interfaol va zamonaviy usullardan foydalanish samarasini quyidagilar:

- o'quvchilar yangi bilimlarni tez va mustaqil egallaydi;
- o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llashga harakat qiladi va mustaqil ijodiy ishlaydi;
- o'rganilgan mavzu doirasida izlanadi;



- atrofni kuzatishga, ko'rganlarini umumlashtirishga va matnni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishga o'rganadi;

- so'z boyligi oshadi, suhbatdoshi bilan o'zaro muloqotga kirishishi, og'zaki va yozma nutqi rivojlanadi;

- qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi.

Ko'rindiki, interfaol usullar, elektron darsliklar zamonaviy axborot texnologiyalari majmuasi sifatida respublikamizning fransuz tili ta'limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, quyidagi interfaol usullar ham darslarni qiziqarli va mazmunli tashkil etishda samara beradi.

**"Tezkor javob"** (Réponse rapide) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

**"Chigil yozdi"** ("Exercices d'échauffement") talabalarni darsga qiziqtirish uchun guruhdada har xil o'yinlardan foydalanish;

**"Pantomima"** (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi;

**"Hikoya zanjiri"** (une histoire de chaîne) usuli o'quvchilarining og'zaki nutqini o'stirishda yordam beradi;

**"Rolli o'yinlar"** (Personnages intérimaires) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin.

Hunarga o'rgatish uchun "Interpreter", "Translator", "Writer", "Poet" kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirot etishib o'quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

**"Allomalar yig'ini"** (Réunion des penseurs) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarini "taklif qilish" mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so'zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

**"Rasmlar so'zlaganda"** (Quand les images parlent) usuli ancha qulay bo'lib, fransuz tilini o'rgatishda, talaba, o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

**Kviz kartochkalari** (cartes de quiz) o'quvchilarining soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirot etish imkonini beradi bu esa vaqtini tejaydi.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, har bir innovatsion texnologiya o'ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'quvchining ta'lim jarayonidagi faol harakati ko'zda tutiladi. Pedagogik innovatsion texnologiyalarning yana bir o'ziga xos xususiyati o'quvchi faoliyatining ustuvorligida, ta'lim jarayonida talaba yoki o'quvchinining



asosiy figura ekanligidadir. Ta'lim jarayonida bilish, leksik, grammatik, talaffuz tushunchalarini to'g'ri shakllantirish, o'quvchi ongida bilimlar sistemasini, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasini to'g'ri tarkib toptirish innovatsion pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :**

1. Ľuboš Krišťák, Miroslav Němec, Zuzana Danihelová, "Interactive Methods of Teaching Physics at Technical Universities", Informatics in Education, 2014, Vol. 13, No. 1, 51–71
2. "FRANSUZ TILI DARSLARIDA INTERFAOL VA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH SAMARASI" Raxmonova Gulnoza Saidovna Ustozlar uchun 44-son 6-to'plam may 2023 Sahifa: 201
3. G.Salomov "Literary Criticism and Literary Translation" "Science" Publishing House Tashkent -1983.
4. Abdullayeva Marhabo Raxmonkulovna. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima yaraishi va o'ziga xos xususiyatda. Innovation, integration va ta'lim bo'yicha xalqaro ma'lumot jurnali, 2 (2), (2021). 297-306
5. "TALABALARING FRANSUZ TILIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH" Akbarova Shahlo G'aniyevna FarDU katta o'qituvchisi Ergasheva Dilrabo Yorqinjon qizi FarDUtilabasi SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6-JILD 6-SON RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI 13.06.2023
6. Imomova Maloxat Xudoyberdiyevna. "FRANSUZ TILI VA UNING FONETIKASI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR" ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
7. Akbarova Shahlo G'aniyevna, Ergasheva Dilrabo Yorqinjon qizi. "TALABALARING FRANSUZ TILIDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH" SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 6-JILD 6-SON RESPUBLIKA ILMIY-USLUBIY JURNALI 13.06.2023

